

Xulosa: Mahalliy turizm iqtisodiy rivojlanish, madaniyatni saqlash, madaniyatlararo almashinuv va jamoalar ichida barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish orqali u sayyohlarga ham, mahalliy aholiga ham joyning o'ziga xosligini qadrlash imkonini beradi. Biroq, potentsial muammolarni hal qilish va barcha ishtirokchilar uchun ijobiy va barqaror turizm tajribasini ta'minlash uchun ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish va boshqarish zarur.

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning yagona tizim sifatida uning ichki turizmdagi funksiyalarini amalga oshirish uchun asos bo'lib qizmat qiladi. Ichki turizmni rivojlantirishda bu funksiyalar asosiy vazifani bajaradi. Biroq, mahalliy turizm bilan bog'liq ba'zi muammolar ham mavjud. Mashhur sayyohlik joylarida odamlarning haddan tashqari ko'pligi transport tizimlari yoki chiqindilarni boshqarish ob'ektlari kabi infratuzilma va resurslarni taranglashishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, agar turizm to'g'ri boshqarilmasa, mahalliy aholining kundalik hayotini buzishi yoki ma'lum hududlarda gentrifikatsiyaga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslari.

1. Очилова, Х. Ф., Амонбоев, М., & Дехконов, Б. Р. (2020). Развитие внутреннего туризма для восстановления отрасли после пандемии. Заметки ученого, (12), 242-247.
2. Рустамович, ДБ (2023). Качество и безопасность услуг общественного питания в Узбекистане. Европейский журнал безопасности жизни и стабильности (2660-9630) (2021/5/23) , 19-23.

MEHMONDO'STLIK SANOATINING HUDUDIY RIVOJLANISHIDA SOLIQ HISOBINING TA'SIRI.

Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li

Qo'qon universiteti

Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrası

tayanch doktoranti

E-mail: o.sh.pulatov@kokanduni.uz

Annotatsiya: Mazkur tezisda mehmondo'stlik sanoatining hududiy rivojlanishiga soliq hisobining ta'siri o'rganiladi. Mehmondo'stlik sanoati — iqtisodiy tizimning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning hududiy rivojlanishi, turizm, mehmonxona xizmatlari va boshqa sohalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'z ichiga oladi. Soliq siyosati va soliq tizimi ushbu sanoatning o'sishi va barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Soliq me'yorlari va soliq yengilliklari, shuningdek, mahalliy va davlat miqyosidagi soliq strategiyalari mehmondo'stlik sanoatining samarali rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonlarning tizimli tahlili orqali hududiy o'sishning ta'sirchan mexanizmlarini aniqlash, soliq siyosatini optimallashtirish va investitsiyalarni jalb etish uchun yangi yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: mehmondo'stlik sanoati, hududiy rivojlanish, soliq hisob, soliq siyosati, investitsiya, turizm, mehmonxona xizmatlari, soliq strategiyalari, iqtisodiy o'sish, soliq tizimi.

Kirish: Bugungi kunda mehmondo'stlik sanoati global iqtisodiyotning muhim tarmog'iga aylangan bo'lib, turizm va xizmat ko'rsatish sohaları orqali milliy va hududiy iqtisodiyotlar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Mehmondo'stlik sanoati nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim manbai, balki hududiy rivojlanishni ta'minlashda ham katta rol o'ynaydi. Shuningdek, mehmondo'stlik sektorining rivojlanishi hududiy barqarorlikni oshiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi va mahalliy infratuzilmaning yaxshilanishiga turtki beradi. Mehmondo'stlik sanoatining rivojlanishi ko'plab omillar, jumladan, iqtisodiy siyosat, infratuzilma, investitsiyalar va soliq tizimiga bevosita bog'liq. Ayniqsa, soliq siyosati mehmondo'stlik sanoatining samarali rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Soliq hisobining tahlili orqali, turizm va mehmondo'stlik

sohasidagi korxonalar va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlashda soliq tizimining qanday o'rni borligi va uning hududiy rivojlanishga ta'siri aniqlanishi mumkin.

Mazkur tezisda soliq siyosati va soliq tizimining mehmondo'stlik sanoatining hududiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqotda soliq strategiyalarining hududiy o'sishga qanday ta'sir qilishi, soliq yengilliklari va soliqlarning tarmoqqa qo'llanilishi bilan bog'liq muammolar va imkoniyatlar tahlil qilinadi. Shu orqali, mehmondo'stlik sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun optimal soliq siyosati va yondashuvlar taklif etiladi. Tezisda soliq tizimining mehmondo'stlik sanoati va uning hududiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganish asosida soliq strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish maqsad qilinadi. Bu, o'z navbatida, mehmondo'stlik sanoatining samarali rivojlanishi va hududiy iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism: Mazkur tadqiqotda mehmondo'stlik sanoatining hududiy rivojlanishiga soliq hisobining ta'sirini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy usullar qo'llanilgan. Tadqiqotning metodologik asosini quyidagi usullar tashkil etadi. **Teorik tahlil,** mehmondo'stlik sanoatining iqtisodiy o'sishdagi o'rni, soliq siyosatining tarmoq rivojlanishiga ta'siri va global tajribalarga asoslangan tahlil yondashuvi orqali umumiy tushunchalar va kontseptsiyalar ishlab chiqildi. Bu usul orqali soliq siyosatining turizm sohasidagi qo'llanilishi va uning hududiy rivojlanishdagi o'rni tahlil etildi. **Empirik tadqiqot,** O'zbekiston va dunyo miqyosida mehmondo'stlik sanoatining rivojlanishi bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar va soliq tizimiga oid ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Bu usul orqali soliq siyosatining turizm sanoatiga ta'siri haqidagi amaliy ko'rsatkichlar o'rganildi. **Soliq siyosatini tahlil qilish,** mahalliy va davlat miqyosidagi soliq strategiyalari va ularning mehmondo'stlik sanoatiga ta'sirini tahlil qilish. Soliq solish tizimi, yengilliklar va imtiyozlar, hamda bu yondashuvlarning hududiy iqtisodiy o'sishga ta'siri o'rganildi.

Soliq tahlili va soliq yengilliklari, mehmondo'stlik sanoati uchun belgilangan soliq yengilliklari va imtiyozlari (masalan, turizmni rivojlantirish uchun ajratilgan subsidiyalar, soliq ta'tili) hamda ularning hududiy rivojlanishga qanchalik ta'sir ko'rsatishini aniqlash. **Case study,** O'zbekistondagi ayrim hududlarda mehmondo'stlik sanoatining soliq siyosati asosida qanday rivojlanayotganligi va natijalarini tahlil qilish. Bu usul orqali soliq yengilliklari va soliq imtiyozlarining turizm sanoati rivojiga qanday ta'sir qilishini aniqlashga harakat qilindi.

Natijalar, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mehmondo'stlik sanoatining hududiy rivojlanishida soliq siyosati va soliq tizimining o'rni beqiyos. O'zbekiston misolida olib qaraganda, turizmni rivojlantirish va mehmondo'stlik sanoatini qo'llab-quvvatlash uchun yaratilgan soliq yengilliklari va imtiyozlar mahalliy iqtisodiyotga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. **Soliq imtiyozlari va yengilliklari,** turizm va mehmondo'stlik sanoati uchun soliq imtiyozlari, xususan, mehmonxona va turizm infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan soliq ta'tili va subsidiyalar, hududiy iqtisodiy o'sishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bu imtiyozlar mehmondo'stlik sohasiga investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi va yangi ish o'rinlarini yaratadi. Masalan, Soliq kodeksiga kiritilgan turizmga oid imtiyozlar, ayniqsa, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa hududiy iqtisodiyotga foydali ta'sir ko'rsatadi. **Soliq siyosatining hududiy iqtisodiyotga ta'siri,** soliq tizimi, shu jumladan, soliqlarni to'lashning qulayligi va tushumlarni mahalliy byudjetlarga qaytarilishi, hududiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lib qoladi. Soliq siyosati samarali bo'lsa, mahalliy byudjetni mustahkamlash, infratuzilmani rivojlantirish va turizmni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. **Investitsiyalarning o'sishi,** soliq yengilliklari va imtiyozlar orqali mehmondo'stlik sanoatiga jalb etilayotgan investitsiyalar hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiyasini va barqarorligini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, soliq imtiyozlari orqali mehmondo'stlik sektori yangi investitsiyalarni jalb qilishda muvaffaqiyat qozonmoqda. Bu esa, o'z navbatida, infratuzilma rivojlanishini tezlashtiradi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. **Turizmni rivojlantirish,** soliq siyosati, ayniqsa, turizmning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan infratuzilmaning shakllanishini rag'batlantiradi. Turistik xizmatlar, mehmonxonalar, restoranlar va boshqa infratuzilma obyektlari uchun ajratilgan soliq yengilliklari, shu bilan birga, mahalliy va

xalqaro turistlarning oqimini oshiradi. Bu esa hududiy daromadlarning ortishiga va mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlashga yordam beradi.

Muhokama qismida tadqiqot natijalaridan kelib chiqadigan xulosalarga ko'ra, mehmondo'stlik sanoatining hududiy rivojlanishida soliq siyosatining roli bevosita o'rganilishi zarur bo'lgan muhim omillardan biridir. Soliq yengilliklari va imtiyozlari mehmondo'stlik sektorining rivojlanishiga ta'sir qilayotgan asosiy mexanizmlardan biri bo'lib, bu o'zgarishlar mahalliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga olib keladi. Shu bilan birga, soliq siyosatining ta'siri faqatgina iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmaydi, balki hududiy hamda ijtimoiy rivojlanishga ham aloqador. Soliq yengilliklari orqali mehmondo'stlik sanoatini rivojlantirish nafaqat turizm sohasiga, balki hududiy infratuzilma, transport, va ish o'rinlari yaratishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, soliq siyosatini yanada takomillashtirish, investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va mehmondo'stlik sanoatiga qaratilgan soliq imtiyozlarini kengaytirish zarur. Shu maqsadda, davlat va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida yanada samarali hamkorlikni o'rnatish va soliq siyosatini moslashtirish talab etiladi. Tadqiqot natijalari va muhokamalariga asoslanib, soliq siyosatining mehmondo'stlik sanoatining hududiy rivojlanishiga ta'sirini chuqurroq o'rganish va soliq strategiyalarini yanada optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

Mehmondo'stlik sanoatini hududiy rivojlantirish bo'yicha soliq sohasida bir qator yengilliklar va imtiyozlar berilmoqda. Jumladan 2022-yil 1-apreldan 2028-yil 1-yanvarga qadar chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari, avtotransportda yo'lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, kompyuter xizmatlari, maishiy texnikani ta'mirlash, agro va veterinariya xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda ko'ngilochar maskanlarda xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash belgilandi. Mazkur soliq imtiyozi tadbirkorlik subyektlari tomonidan, agar ularning mazkur kichik bandda ko'rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etsa, qo'llanilishi belgilandi. 2025-yil 1-yanvardan boshlab mazkur soliq imtiyozi tadbirkorlik subyektlarining har oyda ish haqi miqdori mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 2,5 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda hisoblangan o'ttiz yoshgacha bo'lgan xodimlariga nisbatan qo'llanilishi ko'rsatib o'tildi. Mazkur ayrim ko'rsatilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan xodimlar sonini yashirish holatlari aniqlanganda, mazkur soliq imtiyozining amal qilishi to'xtatiladi hamda qonunchilikda belgilangan moliyaviy sanksiyalar qo'llanilmoqda hozirgi kunda. Tadbirkorlik subyektlariga 2022-yil 1-yanvardan boshlab 2027-yil 1-yanvarga qadar mehmonxona (joylashtirish vositalari) va maydoni 5 ming kvadrat metrdan yuqori bo'lgan savdo komplekslari (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkalari) bo'yicha:

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 90 foizga kamaytirish. Bunda, 2027-yil 1-yanvargacha yangidan quriladigan obyektlarga (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkasiga) nisbatan mazkur imtiyozni ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab 5 yil muddat davomida qo'llash (palatkali (kemping) lagerlar va o'tovli lagerlar shaklidagi mehmonxonalar (joylashtirish vositalari) uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini 90 foizga kamaytirish bo'yicha imtiyozni 2037-yil 1-yanvarga qadar qo'llash belgilandi.

Foyda solig'ini hisoblashda binolarning qiymatini ikki yil davomida amortizatsiya xarajatlari sifatida chegirish huquqini berish imkoniyati berildi.

2022-yil 1-apreldan boshlab 2025-yil 1-yanvarga qadar turizm markazlarida, shuningdek, ayrim tuman va shaharlarda belgilanadigan turizm hududlarida ro'yxatdan o'tgan hamda ushbu hududda umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish), savdo, ko'ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun:

aylanmadan olinadigan soliq stavkasini — 1 foiz;

ayrim hududlardagi obyektlar va ular egallagan yer uchastkasi bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i miqdorlarini — mazkur soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilash ko'rsatib o'tildi.

Bunda, tuman va shaharlarning turizm hududlari chegaralari Turizm qo'mitasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining hududiy boshqarmalari xulosalari asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan belgilanishi ko'rsatildi.

Jismoniy shaxslar tomonidan mahallalararo savdo-xizmat ko'chalari bo'yida joylashgan turarjoy obyektlarini ayrim ko'rsatilgan xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha noturar joy obyekti toifasiga o'tkazilganda 2024-yil 1-yanvarga qadar ularga nisbatan mol-mulk solig'i va yer solig'ining jismoniy shaxslar uchun o'rnatilgan stavkasini saqlab qolish imkoniyati yaratildi.

2022-yil 1-yanvardan uyali aloqa operatorlari uchun uyali aloqa xizmatlariga solinadigan aksiz solig'i stavkasini 10 foiz etib o'rnatish belgilandi.

2022-yil 1-apreldan boshlab qishloq joylarda antenna-machta metall konstruksiyalarini, ularga o'rnatilgan va ularning ajralmas qismi bo'lgan konstruksiyalar hamda ular egallagan yer uchastkalarini yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'idan ozod etish ilgari surildi.

Xulosa:Xulosa qilib aytganda, turizm sohasi nafaqat iqtisodiy o'sish omili, balki jamiyat va atrof-muhit bilan chambarchas bog'liq sohadir. Infratuzilmani modernizatsiya qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali turizmni yanada rivojlantirish mumkin. Kelajakda ekologik barqarorlik va texnologik yangiliklar turizm sohasi uchun eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi. Shu bois, turizmni barqaror va zamonaviy shaklda rivojlantirishga e'tibor qaratish har bir jamiyat uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Mehmondo'stlik sanoati hududiy rivojlanishida soliq hisobining muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Soliq tizimi, ayniqsa, hududiy iqtisodiyotning o'sishiga va samarali rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri tashkil etilgan soliq siyosati, mahalliy sanoatning raqobatbardoshligini oshirishga, yangi ish o'rinlari yaratishga hamda investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mehmondo'stlik sanoatining rivojlanishi uchun hududiy soliq siyosatining moslashuvchanligi muhimdir. Bunda soliq stavkalarining o'zgaruvchanligi, turli hududlar uchun maxsus soliq imtiyozlari va tarmoqni qo'llab-quvvatlovchi davlat dasturlari muhim o'rin tutadi. Hududiy soliq siyosatini o'zgartirish orqali mahalliy sanoatni qo'llab-quvvatlash va mehmondo'stlik sohasidagi raqobatbardoshlikni oshirish mumkin.

Soliq siyosatining mehmondo'stlik sanoatining hududiy rivojlanishiga ta'siri nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi, mehmondo'stlik sanoatida ham soliq siyosati samarali olib borilishi, hududning iqtisodiy yuksalishiga, xalqaro miqyosda raqobatga kirishga imkoniyat yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, hududiy barqarorlikni va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

6. Nazarali o'g'li, M. S. (2023). THE STUDY OF VALUE-ADDED TAX: KNOWLEDGE FROM THE EU VAT EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S VAT SYSTEM. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 131-135.

7. Otto, M., & Thornton, J. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I VA AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ TO'LOVCHILARINI BIR-BIRIDAN FARQLI JIHATLARINI BAHOLASH. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 140-143.

8. Po'latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 1(11-12).

9. Tuxliyev, I. S., Hayitboyev, R., Safarov, B. S., & Tursunova, G. R. (2014). Turizm asoslari. *Fan va texnologiya" nashriyoti*.